

MILLIY QADRIYATLAR VA SOF O'ZBEK TILINI YO'QOLISHI

Xudoyqulova Dilnoza

Osiyo texnologiyalari Universiteti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20018957>

Annotatsiya: Til va qadriyatlarimizga oid maqolada til, qadimgi milliy tariximiz va turkiy tillar shakllanishi, axborot davrining ta'siri, zamonaviy yondashgan holda tarixiy manbalarni kelajak yoshlarga taqdim etish. Unda tilimizning jamiyatdagi o'rni, tarixi va jadidchilarimizni tilga qo'shgan o'rni, tilimizga boshqa bir tillarni qo'shib aytilishi va bunga yechim yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: til, ona tili tarixi, yoshlarni tilga e'tibori, til rivojlanishi, ota bobolarimiz qadriyatlari, til va jamiyat.

Til - jamiyatimizning asosiy bo'g'inidir. Biz til bilan quyidagi funktsiyalarni bajaramiz: muloqot qilish, bir birmiz bilan fikr almashish, ma'lumot uzatish. Ya'ni shuni ta'kidlash kerakki, jamiyatimiz rasmiy sayt va ish joylarida sof o'zbek tilini o'rni begiyosdir. Til o'z xalqining tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu uning jamiyatdagi asosiy aloqasini ko'rsatadi. Sof o'zbek tilida muloqot bir xalqning taraqqiyotini aks ettiradi. Zamonlar osha tilimizni asrab, avlodlarimizga yetkazish bizning asosiy vazifamizdir.

Qadimgi milliy tariximiz va turkiy tillar shakllanishi.

O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, uning rivojlanishi juda qadimiy davrlarga borib taqaladi. Turkiy tillarning dastlabki ildizlari Markaziy Osiyo hududida yashagan qadimgi turkiy qabilalar bilan oid. Bu qabilalar o'zoro muloqot jarayonida umumiy til tizimini shakllantirib keyinchalik turkiy tillarning eng qadimgi yozma manbalari sifatida V||| asrga oid O'rxun- Enasoy bitiklari muhim ahamiyatga ega. Ushbu bitiklari muhim ahamiyatga ega. Ushbu bitiklarda qadimgi turkiy xalqlarning hayoti, urf-odatlarini, berilgan. Bu yodgorliklar tillarning boy tarixiga ega ekanligini ko'rsatadi. Keyinchalik Markaziy Osiyoda turli davlatlarning shakllanishi til taraqqiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy turkiy tilning rivojlanishida beqiyos xizmat qilgan. U o'z asarlarida turkiy tilning boy imkoniyatlarini namoyon qilib, uning, uning ilm - fan va adabiyot tili sifatida rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Asrlar davomida, til rivojlana boshlagan, bundan keyingi bosqich Jadid ma'rifatparvarlarning til rivojiga qo'shgan hissasi.

XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati o'zbek tilining rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Jadid ma'rifatparvarlari xalqni ma'rifatga chaqirib, ta'lim tuzimini yangilanishga harakat qilishgan. Bu harakatning yetakchi vakillaridan biri Abdulla Avloniy bo'lib, uning yosh avlodni tarbiyalash, ona tilini saqlab qolish yo'lida katta ishlar qilgan. Jadidchilar tilini millat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri deb hisoblanganlar.

Axborot davrining tilimizga ta'siri. Bugungi kunda axborot texnologiyalari va internetning tez rivojlanishi tilimizga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, internet saytlari va zamonaviy texnologiyalari orqali boshqa tillardan kirib kelayotgan so'zlar kundalik nutqda keng qo'llanilmoqda. Ayrim hollarda yoshlar orasida o'zbek tiliga boshqa tillarni haddan tashqari aralashtirib gapirish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa sof o'zbek tilini yo'qolishiga sabab bo'ladi. Shu sababli ta'lim tizimida ona tilini chuqur o'rganish, milliy adabiyotlarni keng targ'ib qilish va yoshlarning tilga bo'lgan hurmatini oshirish muhim vazifa hisoblanadi.

Milliy qadriyatlarimiz va ularning ahamiyati. Milliy qadriyatlar- bu bir millatning tarixiy, madaniy axloqiy va ma'naviy merosi bo'lib, ularning, axloqiy va ma'naviy merosi bo'lib, ularning shakllanishi asrlar davomida, xalqning hayot tajribasi, urf-odatlar, an'analari va diniy e'tiqodlari orqali amalga oshadi. Milliy qadriyatlar jamiyatning ruhiy mustahkamligini ta'minlaydi, milliy birdamlik o'zlikni saqlashga xizmat qiladi. O'zbek xalqining milliy qadriyatlari orasida mehmondo'stlik, hurmat, oilaviy qadriyatlar, tarixiy xotira, milliy madaniyat va tilning saqlanishi alohida o'rin tutadi.

Milliy qadriyatlarning yo'qolishi sabablari. Globalizatsiya ta'siri- global madaniyat va texnologiyalar milliy odat va an'analarni e'tiborsiz qoldirishga olib keladi. Yoshlar orasida xorijiy madaniyat mahsulotlari (kino, musiqiy, oqimlar, kiyim- kechak) milliy qadriyatlarga nisbatan e'tiborni kamaytiradi.

Ta'lim tizimidagi kamchiliklar tarix, ona tili va milliy madaniyat fanlarning yetarli darajada o'qitmasligi, ularning amaliy hayotga integratsiyalashtirilmaganligi milliy qadriyatlarning pasayishiga sabab bo'ladi.

Texnologik o'zgarishlar - Ijtimoiy tarmoqlar, internet va mobil ilovalar yosh avlodni tezkor va global axborot oqimiga qaratadi, natijada milliy urf-odatlar va qadriyatlar e'tibordan chetga qoladi.

Shaharsozlik va urbanizatsiya- qishloq an'analari, oila va qo'shni jamoalar bilan bog'liqlik kamayishi, shahar hayotining individualizmni targ'ib qilishi natijasida milliy qadriyatlar susayadi.

Milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish yo'llari. Ta'lim va tarbiya orqali maktab va oliy ta'lim muassasalarida ona tili, tarix, adabiyot, tarbiya va madaniyat fanlarni zamonaviy metodikalar bilan o'qitish. Milliy qadriyatlarni yosh avlodga amaliy tajriba orqali yetkazish. Masalan : an'anaviy bayramlar, hunarmandchilik, xalq o'yinlari, musiqa va raqslar.

Qonunchilik va davlat siyosati. Milliy madaniyat va qadriyatlarni saqlash bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish. Tarixiy obidalar, muzeylar, kutubxonalar va madaniyat markazlarini rivojlantirish, yoshlarni ularni o'rganishga jalb qilish.

Globalizm bilan uyg'unlashtirish. Global madaniyatni qabul qilgan holda, milliy qadriyatlarni modernizatsiya qilish va ularni zamonaviy kontekstga moslashtirish. Misol: milliy kiyimlarni zamonaviy dizayn bilan birlashtirish, milliy taomlarni restoran va kafelarda targ'ib qilish.

Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar yozayotgan o'zbek tili kelajakdagi o'zbek tilining yangi shakliga aylanishi mumkinmi?.

Hozirgi davrda yoshlar ko'p vaqtini Telegram, Instagram va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazadi. Shu sababli yozma nutq ham ko'proq internet orqali shakllanmoqda. Internet esa o'zbek tilidagi so'zlar ko'pincha qisqariladi, boshqa tillar bilan aralashtiriladi yoki noto'g'ri yoziladi. Bu jarayon kelajakda o'zbek tilining rivojiga qanday ta'sir qilishini o'rganish muhimdir.

Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarda ishlatiladigan o'zbek tilni o'rganish va bu holat o'zbek tilining o'zgarishiga sabab yoki yo'qligini aniqlash.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Boboxolov, N. O'z tilini bilmaslikdan yo'qolib borayotgan qadriyatlar, onajondan "mam"ga, otajondan "pap" gacha [Elektron manba] / N. Boboxolov // O'zbekiston Respublikasi

Adliya vazirligi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti. – 2020. – 22 aprel. – URL: <http://til.gov.uz/uz/news-and-announcements/anons/32> (murojaat sanasi: 01.04.2026).

2. O‘zbek tili – milliy g‘urur va iftixor ramzi [Elektron manba] // Xalqaro islom akademiyasi. – 2025. – 18 oktyabr. – URL: <https://iiau.uz/oz/news/4271> (murojaat sanasi: 01.04.2026).

3. Jabborov, U. “Til nomusi”ni qachon his qilamiz? [Elektron manba] / U. Jabborov // Xalq so‘zi. – 2026. – 14 mart. – URL: <https://xs.uz/uz/post/til-nomusini-qachon-his-qilamiz> (murojaat sanasi: 01.04.2026).

4. O‘zbekistonda “Milliy qadriyatlar atlası” uch tilda nashr etildi [Elektron manba] // Caravan-Info. – 2024. – 16 iyul. – URL: <https://caravan-info.uz/uz/culture/417810-v-uzbekistane-izdali-atlas-natsionalnyh-tsennostey-na-treh-yazykah.html> (murojaat sanasi: 01.04.2026).